

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUOMMOLARI VA UNING YECHIMLARI.

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi
Sharipova Madinabonu Faxriddin qizi*

Annotatsiya: Bugungi kunda ishlash layoqatiga ega bo'lgan va mehnat qila oladigan fuqarolarning ko'pchiligi ishsiz. Bu muammo O'zbekistondagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Afsuski yurtimizda 1000 dan ziyod aholi ishsiz va bizning ayrim hududlarimizda hozirgacha kadrlar yetishmaydi. Maqola O'zbekistonda shu yilgacha sodir bo'lgan ishsizlikka oid ayrim holatlar va ularga qo'llanilgan yechimlar, hozirgi paytda sodir bo'layotgan ishsizlikning sabablari va ularni bartaraf etishga yondashilgan yechimlarni bayon etadi.

Kalit so'zlar: Ishsizlik muammosi, O'zbekistondagi rivojlanish, ishsiz aholi, Bugungi O'zbekiston.

Bugungi kunda ishsizlik masalasi butun dunyoda eng og'ir muammo hisoblanadi. Bizni ko'proq o'zimizdagi holat qiziqtiradi. Yurtimizda ta'limga ekologiyaga bozor iqtisodiyotiga e'tibor beriladi-yu ishsiz aholi uchun hali hamon yechim topilgani yo'q. Buning asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz? Ishsizlik sababi turlicha.

Birinchidan, zamonrivojlangani sari texnika ham yildan yilga rivojlanib bormoqda. Bu degani ishchilar bajaradigan ishning yarmini texnika bajaradi va bu ishning kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi.

Uchinchidan, korrupsiya. Nega aynan korrupsiyani ham ishsizlar ko'payishiga asosiy sabab qilib oldim. Sababi o'z sohasini mutaxassisi, har qanday talabga javob beradigan shaxslar o'zi xohlagan ishga kirishi uchun yoki tankasi yoki puli bo'lishi kerak. Puldan muammosi bo'lmagan inson uchun bu muammo emas lekin shu pulni to'lay olmaydigan kadrlar yoki o'z sohasi bo'yicha ishlamaydi, yoki umuman tashlab ketadi. Bu holatlar yurtimizdagi asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Endi bu muammoning boshqa tarafini ko'rib chiqsak. Har doim ham bunday vaziyatlarga davlat aybdor bo'lavermaydi. Buni aholining xohish va istaklaridan kelib chiqib tushuntiraman. Ishsizlik sababi har xil bo'lganidek uning shakllari ham turlicha bo'ladi. Masalan turli sabablarga ko'ra / kimdir yangi yashash joyiga o'tishi mumkin / kasbini o'zgartirishi mumkin yoki oilaviy sabablarga ko'ra ya'ni ba'zi bir oilalarda ayollar ishlashiga qarshilik qilishadi / bola boqish / yoki yangi ish tanlash va yana bir asosiy sababi aholi ishlashdan ko'ra oson pul topish yo'lini qidirishadi. Va natijada ishsiz qolishadi. Ho'sh yuqorida sanab o'tgan sabablarimni yanayam misollar bilan to'liq ochib berishga harakat qilaman. Yuqorida aytib o'tganimdek aholi oson pul topishni avfzal ko'radi. Negaki O'zbekistonning ijtimoiy tarmoqlarida har qanday saytlarni (1 x bet, kazino, notcoin, bitcoin) reklama qilishi aholini o'ziga jalb qiladi. Bunga ishongan aholi bo'lsa, o'zini bunday o'yinlarda qayta-qayta sinab ko'radi. Bor mol-mulkidan ayrilsa ham aqli kirmagan insonlar bunga ishonishadi. Qayta-qayta muammoga duch kelaveradi va bunga asosiy aybdor yana davlat. Ha ha "o'zbekning aqli obetdan keyin" kiradi degandek inson hech qachon o'zini aybdor qilmaydi. To'g'ri davlat ham bunday muammodan mustasno emas aholini shu darajagacha kelishida davlat iqtisodiyotidagi ba'zi bir qonunlarni ham

sabab qilib olsak bo'ladi. Agar davlat har bir ishga layoqatli odamni ish bilan ta'minlab oylik maoshni ham ko'targanda ham rivojlanish sezilarli darajada ko'tarilgan bo'lardi. Afsuski, yurtimizda ishchi o'rinlari bo'lsada maosh kam. Davlat ishida ishlab maoshidan qoniqmagan aholi ko'pincha chet elda ishlashni avfzal ko'radi. Natijada esa bizni yurtimiz ravnaqiga, iqtisodiga, rivojlanishiga, o'sishiga katta hissa qo'shadigan malakali kadrlar boshqa bir davlatning iqtisodiy o'sishiga ko'mak bo'ladi. Hamma odam yashash uchun kurashadi, yaxshi yashash uchun esa albatta pul kerak. Ko'p pul topish uchun yaxshi ishda ishlash kerak. O'z sohasini mutaxassisi bo'lishi kerak. Balki bu oddiy tuyular ammo biz istagan hayot poydevori aynan shulardir. Endi chet elda ishlash mavzusiga to'xtalsak. Bugungi kunda xalqimiz orasida eng mashxur bo'lgan gapni eslasak ya'ni "O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida"! Nima deb o'ylaysiz rostan ham shunaqami? Afsuski unaqa emas. Hozirda yoshlar o'qib o'rganib yurtim ravnaqiga hissa qo'shay deb emas, chet elga ketib o'qib, uy olib o'sha yerda yashab qolishni maqsad qilib olishgan. Nega? Sababi chet el ma'daniyati, yashash tarsi bizgacha yetib keldi. Ammo yoshlarni deyarli ko'p qismi chet el hayotini avfzal ko'rishadi. To'g'ri buning yaxshi taraflari bor. Masalan : chet elda istiqomat qilib bizning ham ma'daniyatimizni, urf-odatlarimizni ko'rsatish natijasida chet el fuqarolari yurtimizga qiziqish bildirib tashrif buyurishi ma'lum bir darajada foyda olib kelishi mumkin. Ammo har doim ham emas. Chunki o'zga yutda yashab, ularni qonun qoidalariga rioya qilib, hatto tinchligi ham ta'minlanmagan yurtda o'zi istagan hayotni barpo qilish ancha mushkul ish. O'zbekistonda aynan hozirgi paytda biz yoshlar uchun barcha shart sharoitlar bor ammo yoshlarning ko'pchiligida bunga xohish va qiziqish yo'q. Shunchaki yaratilgan shart sharoitlarga hiyonat qilmoqdamiz. Aslida bizlar shu yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, yurtimizni rivojlanishiga hissa qo'shib, o'zimiz istagan ishni, maoshni o'zimiz istagandek qilish bizni qo'limizda. Chunki vaqt o'tgan sari hatto pulning ham qadri qolmaydi. Asosiy maqsad maosh uchun ishlash kerak emas. Nega deysizmi? Nega oylik kam bo'lsa har doim davlat aybdor bo'lish kerak. Sababi oylik ko'tarilgani bozordagi narxlar ham oshadi. Va bunda yana davlat aybdor. Va sizga bu har doim kamdek ko'rinaveradi. Ham davlat ishida ishlab ham o'z biznesini yo'lga qo'yganlar qancha...

Afsuski biz shunchaki muammoni ko'ramiz holos yechim esa adolat kabi o'z o'rnini topa olmaydi. Xulosa qilib aytamanki bunday muammolar har bir davlatda bo'ladi. Yechim esa o'sha davlatda yashaydigan aholi taomonidan topilishi kerak. O'zbekistonda ishsizlik darajasi kamayishi uchun birinchi o'rinda korrupsiyani yo'q qilish kerak. Shunda hamma o'z sohasi bo'yicha ishlab yetuk mutaxassis bo'la oladi. O'ylaymanki bu eng to'g'ri yo'l. Negaki o'shandagina yurtimizning ba'zi hududlaridagi maktablarida tarix mutaxassisi huquq fanidan, boshqa til o'qituvchisi ingliz tili fanidan yokida, bilimi yetmaydigan chalasavod kadrlar kamayadi deb o'ylayman. Yana qo'shimcha qilib aytmoqchimanki, hozirda o'qimasdan turib o'z biznesini yo'lga qo'yib omadi chopganlar ham kam emas. Ammo buni yosh avlod noto'g'ri talqin qilib o'zida sinab har doim ham to'g'ri ish qilmayapti. Ular hatto o'qish uchun harakat ham qilmayapti. O'ylaydiki ularga o'xshaydigan biznes "menda ham o'xshaydi" deb. Bilmaymizki, u biznesmen odamlar shu darajagacha yetish uchun qanday to'siqlarni bosib o'tganini. Yaxshi ishda ishlamoqchimizmi zo'r oylik olmoqchimiz ta'limda faol bo'ling. Chunki bunday muammolarga har doim ham davlat aybdor bo'lmaydi. Biz davlatdan talab qiladigan oyligimizga munosib kadr bo'lishimiz kerak. Har qanday texnologik rivojlanish ishchilarning davomiy ishsiz qolishini oldini oladi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

REFERENCES

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI 30.12.2020 Y. XALQ SO‘ZI №276(7778).
2. 1. ABDURAHMONOV Q.X. MEHNAT IQTISODIYOTI: NAZARIYA VA AMALIYOT. DARSLIK. QAYTA ISHLANGAN VA TO‘LDIRILGAN 3-NASHRI. – T.: “FAN”, 2019. – 592 B.
3. ECONOMIC PROGRESS REPORT.- LONDON. : 1981
4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI MA‘LUMOTI 2020 YIL.
5. SOLIQ.UZ - O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI RASMIY VEB SAHIFASI.